



O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida 2014-
yil 19-dekabrda
0055-raqam bilan
qayta ro'yxatga
olingan
2024-yil. 7-son

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tahrir hay'ati:

Hilola UMAROVA
Farhod BOQIYEV
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Jabbor ESHONQULOV
Abdurahim NOSIROV
Bahodir JOVLIYEV
Yorqinjon ODILOV
Valijon QODIROV
Tolib ENAZAROV
Ravshan JOMONOV
Nilufar NAMOZOVA
Sanobar TO'LAGANOVA
Yo'ldosh RAHMATOV
Anatoliy LIXODZIYEVSKIY
Elvina ALIYEVA
Qodirjon NOSIROV
Bekkenbauer REYMOV
Yuliya MUSURMANOVA
Bashorat BAHRIIDINOVA
Shahnoza TURNIAZOVA
Ra'no ABDUSALOMOVA
To'liqin XOLJO'RAYEV
Xadicha MUHIDDINOVA
Umid XO'JAMQULOV
Shahobiddin RASULOV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Farrux JABBOROV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar @TilAdabiyot_bot orqali qabul
qilinadi.

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til
va adabiyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi
shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning
tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq
kelmaydigan fikr-mulohazalari bo'lishi mumkin.

Mualliflarning ism-familiyasi shaxsini tas-
diqlovchi pasportiga muvofiq yoziladi.

Bosmaxonaga 2024.26.07. da topshirildi. Of-
set usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8.
Shartli bosma tabog'i 6,0. "Arial" garnitursi.
10, 11 kegl. "Madad oshiyoni" MChJ bosma-
xonasida chop etildi. Manzil: Toshkent shahri
Yakkasaroy tumani Qushbegi ko'chasi 6-uy.
Buyurtma ___ Adadi 4500 nusxa. Bahosi ke-
lishilgan narxda.

MUNDARIJA

ADABIY TAQVIM

Yoniq so'z yolgini. Professor Qozoqboy Yo'ldosh portretiga bir nazar3

DOLZARB MAVZU

Komil Qarshiyev. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini mukammallashtirish xususida ba'zi mulohazalar7

ADABIYOTSHUNOSLIK

Guli Tursunpo'latova. Mavzu rang-barangligi va badiiy mahorat10

Hamza Allambergenov, Xotamjon Abdullayev. "Rayxon arab" dostoni qiyosiy tahlili11

Iroda Almardanova. O'zbek hikoyalarda shaxs ruhiyatidagi evrilishlar14

METODIK TAVSIYA

Dildoraxon Tulanboyeva. Kimyo yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi kasbiy kompetensiyasini
rivojlantirishga qo'yilgan zamonaviy metodik talablar16

Ro'zmat Ismailov. O'zbek tili darslarida Rufat Risqiyevning hayoti va faoliyatini o'qitish metodikasi18

Rayhon Rasulova. Matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish21

Tursunay Yusupova, Umid Hamroyev. Ravish so'z turkumi mavzusini o'rgatishda kognitiv-pragmatik yondashuv22

Yulduz Baxriddinova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini o'stirishda folklor namunalaridan
foydalanish usullari24

TILSHUNOSLIK

Gulandom Bakieva, Dildora Mardieva. Theoretical, methodological and practical aspects of teaching speaking skills25

Zafar Dadabayev. Language interference in teaching English27

TAHLIL

Farhod Aliyev. Navoiyning nasriy asarlarida Qur'on oyatlari va hadislarining berilishi29

Munira Isomiddinova. Turizm jurnalistikasi rivojida bosma matbuot - jurnallarning o'rni30

Ozoda Sharipova. Vatandan ayrolik va vatansizlikka munosabat bildirilgan paremlarning lingvokulturologik tadqiqi32

TADQIQOT

Abdurahmon Madaminov. O'zbek tilida gap bo'laklarining yoyilishi va ifodalanish usullari33

Jobir Ismatilloev. Munis ijodida Eltuzarxon madhi36

Muyassar Navruzova. Tibbiy birliklarning nominativ va lingvomadaniy tavsifi38

Nazarbay Kilichov. "Oltun yorug'" asaridagi holat fe'llari semantikasi40

Yo'ldosh Rahmatov. "Devonu lug'otit turk" va o'zbek maqolshunosligi44

KICHIK TADQIQOT

Kumush Rajapova. Ona tili darslarida mashq ustida ishlash46

Muzayyana Sobirova. Zamon kategoriyasining substansional tadqiqi47

IZ OYIAT PREPODAVATELYA

Зияда Айтенова. Изучение лексики интерактивными методами для развития речи49

В ПОМОЩЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЮ

Зарина Бабаева, Диана Канатаева. Функциональный подход как способ интенсификации обучения
сочетаемости слов52

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Эльвира Минибаева. Названия восточных должностных лиц в русском языке55

Феруза Мухитдинова, Сонг Янан. Имена собственные на примере рассказа Сергея Довлатова «Старый петух,
запечённый в глине»57

СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Наргиза Жабборова. Сопоставительно-функциональная трактовка лингвокультурных традиционных особенностей
гендерно-вежливых эвфемизмов русского и узбекского языков59

ЗАРУБЕЖНАЯ ЛИТЕРАТУРА

Малика Файзиева. Феномен английского характера в рассказах Фрэнсиса Кинга «Дом» и «Один-ноль»61

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Ахтам Сариев. Содержание упражнений и технология их выполнения при обучении учащихся русской речи63

Зилола Рузиева. Аксиологические аспекты русских пословиц, представленные глаголами совершенного и
несовершенного вида65

Замира Ахмадиллаева, Гульчехра Давлятова. Варьирование выразительных средств в ораторской речи68

Барно Абдуллаева. Роль языковой и культурной компетенций в формировании познавательных процессов70

Камила Ахмедова. Национально-культурная специфика русского детского фольклора72

ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ

Матлюба Мирханова. Использование коммуникативного обучения языку на занятиях75

Мадина Шукурова. Дифференцированное обучение76

СВЕТ НЕГАСНУЩИХ ИМЁН

Анатолий Лиходзиевский. «Верование души и сердца...»78

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika
fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

*Gar ul qildi daryoyi rahmatga g'avs,
Jahon etdi bahri musibatga g'avs.*

*Gar ul vasli haq duridin oldi kom,
Firoqida dur to'kti tamom* [1: 237].

Shoir, tarixchi va davlat arbobi Shermuhammad Munisning "Firdavs ul-iqbol" asari bilan bir qatorda, badiiy jihatdan yetuk qasidalar ham Xiva xonligida qo'ng'irotlar sulolasining hukmronlik davrini va madaniyatini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Xonlik adabiy muhitining peshqadam shoiri bo'lgan

Munis ijodidan ilhomlanib, uning an'anasini davom ettirgan holda boshqa shoirlar ham hukmdorlarga bag'ishlab go'zal qasidalar yaratdi. Jumladan, Ogahiy Muhammad Rahimxon II (Feruz)ning taxtga chiqishi munosabati bilan "Qasidayi nasihat"ni yozdi. Asarda hukmdorni madh etib ulug'lashdan ko'ra unga davlatni boshqarishda adolatli siyosat yuritish, el-ulusni rozi qilish borasida pand-nasihatlar bergan. Bu ijod ahlining mavqeyi tobora yuksalib borganidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 520 b.
2. Sirojiddinov Sh. va boshqalar. Navoiyshunoslik [matn] – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 576 b.
3. Munis Xorazmiy. Munis ul-ushshoq. Devon, toshbosma.

Muyassar NAVRUZOVA,

*Buxoro davlat universiteti boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

TIBBIY BIRLIKLARNING NOMINATIV VA LINGVOMADANIY TAVSIFI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kasalliklar va ularning tarixi, insonlarning ular bilan kurashishi natijasida yuzaga kelgan tibbiy atamalar, tibbiy birliklarning ifodalanishi hamda ularning somatizmlar bilan bog'lanishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kasallik, paremlar, somatizm, xalq og'zaki ijodi, tibbiy birliklar.

Annotation. This article is about the disease and its history, about the medicine that arose as a result of people fighting it. The article examines the representation of medical units and their connection with somatisms.

Keywords: disease, paremes, somatism, folklore, medical units.

Аннотация. Данная статья о заболеваниях и их истории, о лекарстве, возникшем в результате борьбы людей с ним. В статье рассматривается репрезентация медицинских единиц и их связь с соматизмами.

Ключевые слова: болезнь, паремы, соматизм, фольклор, медицинские единицы.

O'zbek xalqi orasida shifokorlik kasbi sharaf, mas'uliyat, fidokorlik kabi sifatlar bilan ta'riflanadi. Ularga katta ishonch bildirib, hurmat qilinadi. Tarixdan ma'lumki, nihoyatda tajribali, yetuk, o'qimishli tabiblarni xalqimiz hakim deb atagan.

Dori-darmonlar bilan davolovchi tabobat yillar davomidagi izlanishlar, amaliy tajribalar yordamida insonni darddan forig' etuvchi usullar va tavsiyalarni o'zida jamlagan. Bu turdagi tabiblar faqatgina tabiiy vositalar asosida dori tayyorlab, kasallarni davolaydi. Afsun va duolar hamda so'z sehri bilan davolovchilar narsa va hodisalarni ilohiylashtirib, undan shifo tilash orqali tuzatishadi. Ularni xalqimiz bajaradigan vazifasiga ko'ra quyidagicha nomlar bilan ataydi:

1. Siniqchilar – xalq tabobatida keng tarqalgan tabiblar bo'lib, ularni *dastakori*, *shikastaband* ham deyishadi. Siniqchilar suyakning sinishi, darz ketishi, chiqishi va etning lat yeyishi kabilarni davolaydi. Ular bemorning umumiy holatini kuzatib, jarohatlangan joyini ushlab ko'rish orqali tashxis qo'yadi. Bundan tashqari, alohida uqalovchi tabiblar (siloqchi) ham bo'lib, lat yegan a'zoni uqalaydi.

2. Jarrohlar. Bu tabiblar tish olish, xatna qilish, qon olish va boshqa murakkab jarrohlik usullarini bilish-

gan. Tabobatda qon olishda zulukdan foydalanilgan. Nashtar va qortiq yordamida qon olish (hijoma) amaliy qo'llangan.

3. Dorigarlar, attorlar. An'anaviy dorixonalar ochilgunga qadar aholini dori mahsulotlari bilan attorlar ta'minlagan. Aksariyat dorilar bozorlarda maxsus joylarda sotilgan. Attorlar haftaning belgilangan kunida chekka hududlarda savdo qilishgan. Bugungi kunda ham giyohlar yig'ib dori tayyorlash an'anasi saqlanib qolgan. Murakkab dorilarni tayyorlashga ularning bilimi doim ham yetarli emasdi.

4. Yurak ko'taruvchi tabiblar. Xalq tabobati-da teri-tanosil va ichki kasalliklarni davolovchi yurak ko'taruvchi tabiblar bo'lgan. Teri-tanosil kasalligini davolovchilar teridagi turli yaralar, qizamiq, oq dog' kabilarni ham davolashgan, ichki kasallik bilan shug'ullanuvchi tabiblar esa oshqozon faoliyatining buzilishi va ichki a'zolarda yuz beradigan xastaliklar bilan kurashgan.

5. Dam soluvchi tabiblar. Bunday tabiblar ruhiy tushkunlikka tushib qolgan bemorlar, bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi bilan bezovtalanayotganlarni afsun-duolar yordamida dam solib davolashgan.

Zamonaviy tibbiyotda shifokor leksemasi tabib atamasiga sinonim bo'lib, ushbu leksik maydondagi lekse-

malarga *stomatolog, okulist, lor, endokrinolog, onkolog* kabi ko'plab xalqaro hamda *tabib, doya* kabi xalqchil so'zlarni kiritish mumkin. Doktor leksemasi baynalmilal so'zlar qatoriga kirib, lotin tilida *o'qituvchi, muallim, ustoz* kabi ma'nolarni ifodalagan. Hozirgi kunda ushbu leksema ikkita semani olgan holda polisemik xususiyatni o'zida mujassamlashtiradi. Demak, *doktor* leksemasi birinchi ma'nosiga ko'ra "tibbiyotga oid shaxs nomlari" paradigmasi a'zolari uchun umumlashtiruvchi integral sema vazifasini bajaradi. O'zbek tilida ushbu leksema bilan bir qatorda *shifokor, vrach, tibbiyot xodimi, do'xtir* leksemalari ham qo'llanadi. Shunday qilib, o'zbek tilida mazkur leksemalar *davolovchi* mazmuniga ko'ra o'zaro sinonim hisoblanadi.

Shuningdek, o'zbek tili umumiste'mol leksikasida *tish do'xtiri, ko'z do'xtiri, quloq, tomoq, burun do'xtiri* kabi qo'shma leksemalar ham qo'llaniladi. Masalan, "...butun olamning zararlanayotganini ma'ruza qilarkan, ikkala ko'zimni obdan tekshirib, ko'z do'xtiriga uchrashni maslahat berdi" (X.Nurullayev, "Hammasi asabdan"). "Yigirma yil oldin tish do'xtiri bo'lmay qochganim rosa alam qildi" (I.Abdiyev, "Tish"). Ko'rinib turibdiki, lingvomadaniy jihatdan xalqimiz mazkur medikonimemalarni ularning obyekt belgisiga ko'ra (*tish, ko'z, burun, quloq, tomoq*) hamda o'zbek tilining talaffuz me'yorlariga moslashtirib (*do'xtir*) ifodalaydi. Shu bilan birga, o'zbek tilida oq *xalalli* birikmasi qo'llanilsa, beixtiyor shifokor shaxsi gavdalanadi. Vaholanki, faqat shifokorlar emas, boshqa kasb egalari ham oq xalat kiyishadi, ammo xayolimizga birinchi bo'lib shifokor keladi. Zero, ushbu kiyim tibbiyot ramziga aylanib ulgurgan.

Tibbiyotga oid shaxs nomlari semasini ifodalovchi leksemalar tarkibiga *tabibni* ham kiritishimiz mumkin. Ma'lumki, o'zbek tilida ushbu leksema denotativ hamda konnotativ ma'nolarga ega. *Denotativ* ma'no jihatdan: *tabib* – shifokor, *davolovchi*; *tibbiyot* ilmidan muayyan mutaxassis tayyorlovchi o'quv yurtida ta'lim olmagan, o'z harakati, hayotiy tajribasi orqali bemorlarni davolash bilan shug'ullanuvchi shaxs. Jamiyat taraqqiy etishi bilan oliy o'quv yurtlari tashkil etilib, tabobat ilmi rivojlandi. Natijada *tabib* leksemasidan tubdan farq qiladigan, baynalmilal atama hisoblangan *doktor* muomalaga kirib keldi. Chunonchi, hozirgi kunda *tabib* leksemasi o'z denotativ ma'nosida ishlatiladi:

1. Doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan falsafa yoki fan doktorlarga beriladigan oliy ilmiy daraja.

2. Kasallarni davolovchi oliy ma'lumotli tibbiyot xodimi.

Konnotativ ma'no jihatidan *tabib* muammodan *forig' etuvchi, yechim topuvchi, yomonliklardan saqlovchi, xalos etuvchi, davolovchi, shifo beruvchi* kabi ma'noni o'zida birlashtiradi. Masalan: *Tabiatning o'zi tabib; Eng zo'r tabib – tozalik* (maqollar).

Kasalliklar va davolovchilar nomi somatizmlar bilan bog'liq, ya'ni somatizmlar – odam yoki hayvon tanasi qismlarining asl ma'nosiga ega bo'lgan otlari. Bu atama biologiya va tibbiyotda *inson tanasi bilan bog'liq narsa* ma'nosida qo'llaniladi. Inson o'zini shaxs sifatida anglashi, tanasining his-tuyg'ulari va qismlari orqali unda paydo bo'ladigan sezgilardan boshlanadi. Sezgi a'zolari va mavhum tafakkur yordamida inson borliqni

tan oladi, ongida dunyoning berilgan rasmini shakllantiradi. Ta'kidlash kerakki, somatizmlar turli xalqlarda imo-ishoralar, mimikalar, simvolizm va metaforaziya birliklari orqali ko'pincha bir-biridan farq qiladi. Jonli tasvir, mavzuga nisbatan hissiy munosabatni yaratish uchun so'zlarning majoziy ma'noda ishlatilishi bilan farqlanadi. Inson o'zi va qurshab olgan atrofni anglay boshlaganidan beri odamlar his-tuyg'ularini turlicha ifodalashi, dunyoning tasviri fenomeni paydo bo'ldi.

Xalq paremalarida kasallik, og'riq, dard, bemorlik bilan bog'liq maqollar borki, ularning har biri o'z qo'llanish o'rni va mazmuni bilan ajralib turadi. Ushbu xalq paremalarida xalqimizning ming yillik tajribasi, tarixi, tili, dini, madaniyati aks etgan. Bugungi kunda tibbiy birliklardan kundalik axborot almashinuvida tez-tez foydalanamiz. Insoniyat bor ekan, vujudini azoblaydigan, halovatini o'g'iraydigan kasalliklarning ham bo'lishi tabiiy hol. Shu nuqtayi nazardan maqollarda o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llanilgan qator tibbiy birliklar uchraydi.

Dard semasini ifodalovchi paremiologik birliklar:

– *Bedard yonida gapirsang boshi og'rir*. Ushbu maqolda tashvishsiz yoki sog'lom odam yonida o'z muammolaring, sog'lig'ing haqida gapirsang unga ham shu ruhiy tushkunlik o'tishi, sog'lig'ining o'zgarishi kabi holatlar ifodalangan;

– *Dard botmonlab kelar, misqollab chiqar*. Bunda kasallikning kelishi oson, ketishi qiyin, degan fikr ilgari surilgan. Masalan, oddiy shamollashda bosh og'rig'i, isitma, yo'tal, tomoq bo'g'ilishi kabi holatlar birdaniga paydo bo'ladi va bu maqolda "botmonlab kelar" tushunchasi bilan, bunga qarshi qilingan muolajalar ikki-uch haftadan keyin o'z samarasini berishi esa "misqollab chiqar" jumlasida o'z aksini topgan;

– *Dard keldi – darmon ketdi*. Inson biror dardga chalsin, unda holsizlik, charchash kabi alomatlar tez-tez kuzatiladi. "Darmon ketdi" tushunchasi sog'liqning yomonlashishi, holdan toyish kabilar bilan izohlanadi.

Kasallik semasini ifodalovchi paremiologik birliklar:

– *Vahima qilish yarim kasallik, xotirjamlik yarim boylik, sabr esa shifoning boshlanishidir*. Maqolda davo sirlari bayon etilishi bilan birga, hayot haqiqatlari ham jo bo'lgan;

– *Kasalni tabib emas, habib tuzatar*. Habib – sevikli do'st, o'rtoq demakdir. Maqolda bemorni nafaqat tabib, balki uni yelkadosh do'stining mehri ham yostiقدan bosh ko'tarishiga yordam berishi aytilgan.

Folklorning yaxshi niyat ifodasiga qaratilgan mustaqil janri hisoblangan **olqishlarda** kasallik nomlariga tez-tez murojaat qilingani kuzatiladi. Masalan: *Og'zi oshga yetganda burni qonamasin; beling bukilmasin, beli sinmasin*.

Qarg'ishlarda ham kasallik nomlari ko'p uchraydi: *"Tishing to'kilsin", "Og'zingdan qoning kelgur", "Qulog'ingga tom bitsin", "Qulog'ingga qo'rg'oshin quyilsin", "Chakaging sinsin"* singari qarg'ishlarda insonga o'lim, og'ir kasalliklarni tilash motivi anglashiladi.

Tibbiyot shakllanguncha odamlar kasalliklarni u yoki bu ko'rinishdagi mif mavjudot, inson tanasi va ruhiyatiga zarar yetkazuvchi yovuz kuch sifatida tasavvur qilgan. Mana shunday mifologik tasavvur-tushunchalar tufayli ularga murojaatdan iborat turli aytimlar paydo

bo'lgan va og'izdan og'izga, avloddan avlodga o'tib, asrlar davomida badiiy kompozitsion jihatdan sayqallanib kelgan. Qizig'i shundaki, hozirgi paytda tibbiyot rivojlanganiga qaramay, xalq orasida davolash magiyasiga ishonch asosida yaratilgan poetik aytilar, urfodat va magik marosimlar hamon saqlanib kelmoqda.

O'zbek folklori tizimida insonning turli xastaliklarga

hissiy munosabatini o'zida badiiy ifoda etgan davolash magiyasiga ishonishda bunday poetik aytilar: birinchidan, odamzod badiiy tafakkurining yorqin namunalari sifatida, ikkinchidan, hanuzgacha xalq hayotida amalda ekani bilan, vanihoyat shiddat bilan kechayotgan bugungi kundagi voqeliklarga daxldorligi bilan muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev F. O'zbek tili leksikasining ba'zi bir masalalariga doir. // O'zR FA Til va adabiyot instituti asarlari. Fan, 1949, – B. 25-26.
2. Abdurasulov Y. Nutq jarayonida so'z ma'nosini kuchaytirish usul va vositalari. // Nutq madaniyati masalalari. 1993. – B. 118–121.
3. Yoqubbekova M. O'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2005. – 160 b.
4. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. – 312 b.
5. Imomov K. O'zbek xalq nasri poetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 252 b.
6. Imomov K., Mirzayev T., Sarisoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. /Darslik/ – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – 304 b.
7. Karamatov H. O'zbekistonda moziy e'tiqodlar tarixi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2008. – 664 b.
8. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1975. – 268 b.

Nazarbay KILICHOV,

Xorazm Ma'mun akademiyasi doktoranti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

“OLTUN YORUG” ASARIDAGI HOLAT FE'LLARI SEMANTIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimgi turkiy tilning yorqin yodgorligi bo'lgan “Oltun yorug” asari leksikasidagi holat fe'llarining semantikasi, lug'aviy-mavzuviy guruhlar tahlil qilingan. Ayrim holat fe'llarining qadimgi turkiy dialektlarga va hozirgi turkiy tillar leksikasiga munosabati masalasida ham fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: qadimgi turkiy til, “Oltun yorug”, fe'l, holat fe'llari, dialektlar, turkiy tillar, semantika.

Annotation. This article analyzes the semantics, lexical-thematic groups of verbs in the lexicon of the work “Altun yaruk”, which is a bright monument of the ancient Turkic language. At the same time, an opinion was also expressed on the issue of the relation of some verbs of the old Turkic language to the ancient Turkic dialects and the lexicon of modern Turkic languages.

Key words: ancient Turkic language, “Altun yaruk”, verb, state verbs, dialects, Turkic languages, semantics.

Аннотация. В данной статье анализируются семантика, лексико-тематические группы глаголов в лексике произведения “Алтын ярук” (Золотой блеск), являющегося ярким памятником древнетюркского языка. При этом было высказано мнение об отношении некоторых глаголов древнетюркского языка к древнетюркским диалектам и лексике современных тюркских языков.

Ключевые слова: древнетюркский язык, “Алтын ярук” (Золотой блеск), глагол, глаголы состояния, диалекты, тюркские языки, семантика.

Qadimgi turkiy tilda ham, keyingi davr turkiy tillar leksikasi rivojida ham harakat-holat ma'nosini ifodalovchi fe'llar so'z turkumlari orasida asosiy o'rinni egallaydi. Turkiy tillardagi fe'l – ot omonimligi shuni ko'rsatadiki, ko'pgina otlar – nomlovchi so'zlar ham aynan fe'l polisemeyasi asosida, ya'ni harakat-holat ma'nosidagi so'zning bosh va ko'chma ma'nolari o'rtasidagi semantik bog'lanish uzilishi natijasida yuzaga kelgan (masalan, to'y – to'ymoq, to'y – tantanali marosim kabi). Yoki fe'l asosiga ot yasovchi qo'shimchalarni qo'shish orqali bir qancha yangi ot so'zlar yasalgani ilmiy adabiyotlardan ma'lum. Bunday keng qamrovli ma'no qurshovini holat fe'llari semantikasida ham ko'rinadi. Qadimgi turkiy tilda, aniqrog'i, “Oltin yorug” asari leksikasi tarkibidagi holat fe'llarini quyidagicha tasnif qilish mumkin [1: 141]:

1. Davomli holat fe'llari. Ushbu guruhga kiruvchi fe'llar davomli holatni ifodalaydi: yat= – yot, tur= – tur, yasha= – yashamoq, o'rna= – o'rnashmoq kabi. Ularni matn tarkibidagi ma'nolari bilan tahlil qilamiz.

yat= – yotmoq. Mustaqil fe'l vazifasida kelgan: Ät'özläri alangurup küçi küsüni üzülüp, unaqaya ölgäli

yatur ärti – tanalari zaiflashib, madori tugab, hoziroq o'ladigan holda yotar edi [2: X, 6a].

Ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasida yordamchi fe'l vazifasida keladi: töbün yükünüp suna yatip ançagha tägi turmaghaym(ä)n t(ä)ngirim – sajda qilib, cho'zilib yotib: “Ancha vaqtgacha turmayman, tangrim” [2: V, 24b].

Umumiy bir ma'noning analitik shakli bo'lgan ko'makchi fe'li so'z qo'shilmalari tarkibidagi yordamchi fe'llar turkiy tillarning keyingi taraqqiyot bosqichlarida mustaqil ma'nosini deyarli yo'qotib, qo'shimcha ma'no anglatishga – sintetik shaklga o'tgan. Demak, ko'makchi fe'llar grammatikalizatsiyaga uchragan, lekin to'liq grammatikalizatsiyalanmagan [3: 18]. Hozirgi o'zbek tilidagi -yotir, -yotib, qoraqalpoq tilidagi -jatir, -atir (qipchoq guruhi turkiy tillarining y-j fonetik varianti) kabi davomli hozirgi zamon shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalari fikrimizning tasdig'i bo'la oladi. Qadimgi turkiy til davridayoq yat fe'li deyarli yordamchi fe'l vazifasida qo'llanishga o'tganini ko'rishimiz mumkin: anta ötrü bod'is(a)twning yash söngükläri inaru bärü anta munta saçilip yatmishin körüp – u yerda bo'disatvning yangi suyaklari u yer-bu yerda sochilib yotganini ko'rib [2: X, 14a].